

**Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna
pedagogika fanlari doktori (DsC), professor**

E-mail: izbullayeva@mail.ru

**Maxamadov Abduhoshi Mo'minjon o'g'li
Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi
E-mail: maxamadovabduhoshim8@gmail.com**

**SOVET HUKUMATI TOMONIDAN 20-YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN HUJUM
HARAKATINING FARG‘ONA VODIYSIGA TA’SIRI
(Farg ‘ona tumnайдаги Log‘on qishlog‘i misolida)**

Annotatsiya: Ushbu maqola yigirmanchi yillarda mustabid sho‘ro hokimiysi tomonidan “Hujum” harakatining tashkil etilishi, undan ko‘zlangan maqsad va uning oqibatlari, ayollar turmush tarzidagi o‘zgarishlar vodiyning Farg‘ona tumanidagi Log‘on qishlog‘i misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Hujum”, Farg‘ona, Log‘on, Hamza, otinoyi, ayollar, paranji va hokazo.

Аннотация: В данной статье показана организация движения «Худжум» советской властью в двадцатые годы, его цели и последствия, изменения в образе жизни женщин на примере села Ляган Ферганского района долины.

Ключевые слова: «Худжум», Фергана, Ляган, Хамза, отинойи, женщины, паранджи и др.

Abstract. This article shows the organization of the "Hujum"(attack or assault) movement by the Soviet authorities in the twenties, its goals and its consequences, changes in women's lifestyles on the example of the village of Logon in the Fergana district of the valley.

Key words: “Hujum”, Fergana, Lyagan, Hamza, otinoyi, women, paranji, etc.

KIRISH

Ayol zoti azal – azaldan go‘zallik va nafosat, fidoiylik va jasorat singari olivjanob fazilatlarni o‘zida mujassam eta olgan ajib bir hilqat sanaladi. Azaldan ularning go‘zalligi olamni charog‘on etib kelgan, chunki uning niyati ham o‘zi ham pok. Qolaversa, biz hayotimizni sevgi va sadoqat, mehr va muhabbat, nazokat va latofat kabi bekatrор, nozik tuyg‘ularni ayol zotisiz hecham tasavvur eta olmaymiz.

Ayol deganda eng avvalo ko‘z oldimizda mo‘tabar onamiz, suyukli opa-singillarimiz gavdalanadi. Ularning matonati, sabri va bardoshiga esa turli zamonlarda tahsinlar aytib, madh etishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolani yozishda mavzuga oid ilmiy asarlar, maqola va dala taddiqotlari davomida mahalliy aholi vakilari bilan bo‘lgan suhbatlar natijasida yozib olingan ma’lumotlardan asosiy manba sifatida foydalanildi.

Maqolada tahiliy-ilmiy, tanqidiy, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish, tahlil va tavsif kabi metodlardan foydalanilgan .

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Markaziy Osiyoning gavhari bo‘lgan Farg‘ona vodiysi ham o‘zining zahmatkash, vatanparvar er yigitlari bilan bir qatorda, har jabhada ibrat bo‘la oladigan ayollari bilan ham barchaga ma’lum-u mashhur. Ayniqsa, XX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotdagi o‘zgarishlar yuz berdi. Ularning hosilasi natijasida deyarli barcha soha va tarmoqlarda erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham o‘rni va roli sezilarli darajada ortdi.

Vodiyning Farg‘ona tumani hududidan ham nafaqat sovet davrida, balki hozirda ham katta-katta unvon va mukofotlarga sazovor bo‘lgan, jamiyat hayotida muhim o‘rin egallagan ayollar kamolga yetgan. Ularning ko‘plari hozirda ham o‘z mehnati bilan elda hurmat qozonib kelmoqda. Lekin, bundayin natijaga vodiyning ko‘plab hududlari qatori Farg‘ona tumani ham birdaniga erishmagan.

Buni tumanning yirik qishloqlaridan biri bo‘lmish Log‘on qishlog‘i misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, qishloq hududida istiqomat qilgan ayollar asosan, “Hujum” harakatiga qadar boshqa hududlardagi kabi uy xo‘jaliklarida mehnat qilishgan. Ayollar uy sharoitida tikuvchilik bilan shug‘ullanib, paranji, to‘n, do‘ppi, joynamoz, chorsa, jiyaklar tikishgan. Jundan sholcha va namat tayyorlashgan.

Ko‘rpa-to‘shak tikish ishlari esa ko‘p hollarda ko‘pchilik bilan amalga oshiriladigan ish hisoblangan. Buni asosan, to‘y marosimlari vaqtida yaqqol ko‘rish mumkin bo‘lgan. Qishloqning yoshi katta ayollar kechki payt bir yerga jamlanib, kelin sarposi uchun ko‘rpa-to‘shak, yostiq tikishgan. Qiziqarli jihat, bu odad hozirga qadar qishloq ayollarini orasida saqlanib qolgan.

Qolaversa, qishloq ayollarini nafaqat uy ishlarida mohir bo‘lish bilan bir qatorda, ular orasida ziyyoli ayollar ham bo‘lgan. Ularni qishloqliklar otinoyi, otinbi yoki otincha deb atashgan.

Tarixdan ma’lumki, otinoyilar barcha hududlarda asosan ayollar o‘rtasidagi diniy marosim va ayollarga xos bo‘lgan tadbirlarga boshchilik qilishgan. AQShlik taniqli tadqiqotchi olma Marianna Kamp o‘zining “The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism”¹ nomli asarining to‘rtinchi bobida otinoyilar faoliyatini tahlil qilib, ularning faoliyati o‘ta muhim bo‘lganligini hamda musulmon ayollarini diniy martabalari orasidagi eng yuqori o‘rinda turganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u otinoyini musulmon dini iyerarxiyasida ayollar uchun diniy ta’lim olish uchun ruxsat etilgan bilim olish manbasi va diniy marosimlarni o‘tkazuvchisi hisoblanganligini qayd etadi. Darhaqiqat, otinoyilar jamiyatda xotin-qizlarning o‘ziga xos tarbiyachisi sifatida qadrlanib kelingan. Eng muhimi, ulardan biror yerda hujjat talab etilmagan yoki ushbu ishlari uchun jazolanmagan. Aksincha, ularning namunali xulqi, turmush tarzining o‘ziyoq qizlarga ustozlik qilishga yetarli asos bo‘la olgan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, otinoyilarning faoliyati o‘zining xalqchilligi, pokligi va tarbiyaviyligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etgan.

Otinoyilar Qur’oni Karim qiroti, uning tajvidi bilangina cheklanib qolmasdan, uing tafsirini o‘rganishgan va o‘rgatishgan. Shu bilan birga ular payg‘ambarlar qissalarini va xalq og‘zaki ijodini ham yaxshigina biliшgan hamda hassos notiq hamda shoira bo‘lganlar. Ularga misol qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Dilshodi Barno, Anbar Otin, Nozimaxonim, Samar Bonu singari fozila ayollarni keltirishimiz mumkin.

¹ <https://www.jstor.org/stable/j.ctvcwncc0>

Tarixdan ma'lumki, sovet hokimyatinining o'rmatilishi, yurtimiz hududida islom dinining taqiqlab qo'yilishi natijasida otinoyilarning faoliyati bir oz cheklandi. Lekin ular butunlay yo'qolmadidi, aksincha, ilgarigidek guruh bo'lib emas, yakka holda faoliyat yurita boshlashga o'tishadi. Bu paytga kelib, ular o'z xonadonlarida ayollarga ta'lim-tarbiya bera boshlaydilar. Masalan, bиргина Log'on qishlog'ining o'zida har bir ko'chaning o'z otinoyisi bo'lib, biror masala yuzaga kelsa yoki marosim tashkil etiladigan bo'lsa, avvalo, ularga maslahat solishgan, xabardor etishgan. Bu davrning yana bir xarakterli jihat shundaki, otinoyilar o'ttizinchи yillardan boshlab, faqatgina uy yumushlari yoki qizlar tarbiyasi bilan shug'ullanish o'rniga, jamoa xo'jaliklarida mehnat qilishga majbur bo'lishgan. Bunga sabab sifatida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek islom dini va unga nisbatan olib borilgan siyosat ro'kach qilib ko'rsatilgan. Ta'lim olishni istagan xotin-qizlar esa kechki paytlarda imkon qadar hech kimga bildirmaslikka harakat qilgan holda otinoyilardan saboq olishgan². Birgina misol sifatida, qishloqning O'rta mahalla³ nomli ko'chasida istiqomat qilgan Tojixon otinoyi faoliyatini tahlil qiladiga bo'lsak, ushbu ayol xat savodi jihatidan anchayin kuchli bilimga ega bo'lgan. O'zi Qur'oni Karimni o'qish bila birga, arab, eski o'zbek va kirill alifbosi imlo qoidalarini puxta o'rgangan va o'zi mustaqil yoza olgan. Chiroqli husnixat egasi bo'lganligi bois, xattotlik ham qilgan. Buni hozirda ushbu insonning farzandlari qo'lida saqlanib qolgan bir qancha namunalardan ham bilsak bo'ladi. Shuningdek, Tojixon aya otinoyilik bilan birga jamoa xo'jaligida kalxozchi bo'lib ishlagan⁴. Bundan, qishloq ayollarini orasida diniy-axloqiy ta'lim sovet davri sharoitida yaxshi saqlanib qolginganligini bilib olsak bo'ladi.

Azaldan islomiy aqida asosida yashab kelayotgan O'rta Osiyo xotin-qizlarini jamiyatda tutgan rolini qayta ko'rib chiqish, ba'zi uy ishlaridan ozod qilish, ularni erkaklar bilan teng asosda ishslash imkonini berishga qaratilgan "Hujum" harakati yoki "Sharq ayollarini ozodlikka chiqarish" nomli tadbirning tashkil etilishi, o'z vaqtida jiddiy noroziliklarni keltirib chiqaradi. Bir so'z bilan aytganda, ozodlik ayollarga anchagina qimmatga tushadi.

1920-yillarda SSSRda ayollar masalasiga e'tibor berilib, ularning jamiyatdagi o'rni va roli qaytadan ko'rib chiqish masalasi o'rtaga tashlanadi. Bu tarixga "Hujum" harakati nomi bilan kiradi. Asosan, "Sharq ayolları"ga ozodlik berish bahonasida, sovet hokimiyati bir qator o'zining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ham ko'zlangan edi.

Harakat dastlab, turli hududlarda bir qator masalarda ayollarga maslahat beradigan – ayollar bo'limlарini tashkil etishdan boshlanadi. Targ 'ibot-tashviqot ishlarini asosan rusiyabon ayollar olib borishgan. Ushbu harakat, eng avvalo, paranjilarni ommaviy tashlash va yoqib yuborish kabi keskin harakatlari bilan barchaning yodida qoldi.

"Hujum" harakati ilk bora 1924-yilda boshlangan va muvaffaqiyatsizlikka uchrab, 1925-1926-yillarda sekinlik bilan davom etadi. 1926-yil sentabr oyida O'rta Osiyo Partiya Komitetining "Xotin-qizlar bo'limlari" vakillari ishtirokida o'tkazilgan kengashda ayollarini majburiy ravishda "ozodlikka chiqarish", ya'ni paranjidan xalos etishga qaror qiladilar⁵. Dekabr oyidan boshlab esa, harakatni boshlash uchun maxsus komissiyalar tuziladi⁶. Uning keng

² Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani, Log'on qishlog'i "Vaziyo" MFYda yashovchi Abdullajonova Munavvarxonidan (1957 yilda tug'ilgan) yozib olindi.

³ Log'on qishlog'ining asosiy ko'chalaridan biri. Ushbu ko'cha 1965-yilda Mirbobo nomiga o'zgartirilgan.

⁴ Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani, Qal'acha qishlog'ida yashovchi Nizomova Sharofatxonan (1950 yilda tug'ilgan) yozib olindi

⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистан совет мустамлакачилиги даврида //Тузувчилар: М. Жўраев, Р. Нуруллин, С. Камолов ва бошқу; Тахрир хайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқу.— Т.: «Шарқ», 2000. 376 – bet.

⁶ Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Т. 1975. 38 – bet.

yoyilishi va avj olishi esa 1927-yilda kuzatildi. 8-mart kuni O‘rta Osiyo Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi Isaak Zelenskiy go‘yasi bilan Samarqand shahridagi Registon maydonida paranjisini tashlashga rozi bo‘lgan turli hududlardan kelgan ayollar ishtirokida “paranji tashlash marosimi” o‘tkaziladi. Shu kunning o‘zida 10.000 ayol paranjisini tashlaganligi haqida ma’lumotlar bor⁷. Natijasida turli hududlarda bundayin tadbir keng avj ola boshlaydi.

Farg‘ona tumanida ham “Hujum” harakati o‘zgacha kechdi. Misol uchun, harakat davomida O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalari uchun faol targ‘ibotchisi sifatida e’tirof etilgan Tojixon Shodiyeva ayni shu hududdan edi⁸. Qolaversa, Hamza Hakimzoda Niyoziyning faoliyati hamda uning fojiaviy taqdirini ham esadan chiqarmaslik zarur. Chunki, uning o‘limi sabablaridan biri uning paranji tashlashni qo‘llab-quvvatlagani va targ‘ib qilganida edi.

“Hujum” Farg‘ona tumanining barcha qishloqlari qatorida Log‘on hududida ham yaxshigina targ‘ibot ishlari amalga oshirilgan. Dastlabki dala tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, qishloqda paranji tashlashga qaratilgan namoyishga bevosita Hamzaning shaxsan o‘zi rahbarlik qilgan va nutq so‘zlagan ekan. Unga ko‘ra, 8-mart sanasida qishloq markazida barcha ayollar ishtirokida paranji tashlash tadbiri tashkil etiladi. Tadbirni shaxsan Hamzaning o‘zi ochib berib, ayollar ozodligi va tengligi haqida nutq so‘zlagan. Gulxan yoqilgan. Tabiiyki, o‘z o‘zidan savol tug‘iladi: Qishloq ayollari orasida paranjini kim birinchi bo‘lib tashlagan ?



1-rasm. Gulsun buvi turmush o‘rtog‘i Nazarov Xo‘jaxon

Bu haqda qishloqliklar orasida ikki xil fikr mavjud. Ba‘zilar: ilk paranjini ayni o‘sha tadbirda Rajabi buvi tashlagan desalar, boshqalar fikriga ko‘ra, Gulsun buvi (1-rasm) birinchi bo‘lib o‘z paranjisini tashlagan deydilar⁹. Lekin, Gulsun buvining paranjini ilk tashlaganligi haqidagi fikr bir oz noaniq, izlanishlarni talab etadi.

Rajabi buvi haqida bunday deya olmaymiz. Chunki, Rajabi buvi paranjini o‘sha tadbirning o‘zida barchaning ko‘z o‘ngida gulxanga tashlagan ekan. Izlanishlarimiz davomda, ushbu voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va bevosita ishtirok etgan Shahribonu buvi: “Gulxan yonib turardi. Barchamiz qo‘rqqanimizdan jim turardik. Shu payt oramizdan Rajabi (buvi) chiqib, boshidan paranjisini olib, gulxanga otib yubordi. Boshqa hech kim paranjisini yechmadi. Shu bilan yig‘ilganlar uyiga tarqaldi” – deya o‘z xotiralarini nabiralariga so‘zlab berganligini aniqladik¹⁰. Ushbu fikrni yana Rajabi buvining qizi Hamrojon aya ham tasdiqlab: “Onam qishloqda ilk bor paranji tashlagan ayol edi. 8-martda onam barchaning oldida boshidan parajisini olib, qo‘llari bilan yirtib tashlab

⁷ <https://daryo.uz/2019/10/01/ozbek-ayoli-paranjini-qanday-tashladi-hujum-harakati-haqida>

⁸ Bu haqda qarang: ГЎЗАЛЛИКДА ТЕНГИ ЙЎҚ МАСКАН. Фаргона тумани ташкил топғанлигининг шонли етмиш йиллик юилейига бағишлиданади. Фаргона: «ФАРФОНА» нашриёти, 1996 йил.; Abdulahatov N., Zohidov F. Farg‘ona tumani tarixi // asotirlar, lavhalar, izlanishlar / “Farg‘ona” nashriyoti/Farg‘ona – 2013y.; Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar: avtobiografik roman / Shukrullo. - Toshkent: Yangi asr avlodи, 2020.; Женщины Узбекистана //«Смена» август, 1967 год. № 965.; Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20 - 80 йиллари мисолида): ўқув кўйлланма/ Н. Жўраева; маъсул мухаррир Д.Б. Бобоҷонова. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013.

⁹ Dala tadqiqotlari. 2024 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Log‘on” MFYda yashovchi Raxmatova Po‘latxonidan (1969 yilda tug‘ilgan) yozib olindi.

¹⁰ Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Xurshidi Tobon” MFYda yashovchi Eshonboboyeva Yorqinoydan (1961 yilda tug‘ilgan) yozib olindi.

gulxanga otgan. O'shanda onam menga homilador bo'lgan. Paranjisi nihoyatda chiroyli bo'lganligidan uni gulkanda yonayotganini ko'rib, hayajondan to'lg'oq tutgan. Ayni shu kuni men dunyoga kelganman” – deya aytib berdilar¹¹.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, xulosa chiqaradigan bo'lsak, qishloqda paranji tashlash tadbiri haqiqatdan ham tashkil etilgan, biroq qachon va qayerda ekanligi noma'lum. Xuddi shuningdek, tadbirda Hamzaning ishtirok etganligi ham biroz noaniq. Chunki, bu haqda shu paytgacha Hamza hayoti va faoliyatiga bag'ishlab yaratilgan asarlarda biror ma'lumot keltirilmagan. Lekin, tarixiy hujjatlarga ko'ra, Hamza 1925-yil 10-avgustdan to 1926-yil oktabr-noyabr oylariga qadar Avval qishlog'iда yashagan. Qolaversa, 1926-yil iyun oyida u tuman ijroiya qo'mitasi a'zoligiga saylanadi¹². Agarda ushbu fikrga tayanadigan bo'lsak Hamza haqiqatdan ham Log'onga kelgan bo'lishi mumkin. Sababi, birinchidan Avval va Log'on qishloqlari bir biri bilan qo'shni, ikkinchidan esa Hamzaning qarindoshlari Log'onda istiqomat qilganligi haqida bizda ma'lumotlar mavjud¹³. Demakki, qishloqda paranji tashlash tadbirlarida bevosita Hamzaning o'zi ishtirok etgan bo'lib chiqadi. Buni yuqoridagi dala tadqiqotlari hamda arxiv hujjatlari ko'rsatib turibdi.



**2-rasm. Eshonboboyeva Shahribonu
(1894 - 1975)**

Yigirmanchi yillarning oxiri o'ttizinchi yillarning oxirlariga kelib, deyarli barcha qishloq ayollari paranjilarini tashlab bo'lganlar. Endilikda ularning deyarli barchalari jamoa xo'jaliklarida mehnat qilishni boshlashgan.

Lekin qishloq ayollari paranji tashlagan bo'lsalar ham uning o'rniga boshlariga "sarkashak" (qishloq ayollari tomonidan erkaklar ko'yaklaridan tayyorlangan hamda boshga tashlab yuriladigan bosh kiyimi) tashlab yurganlar. Bu bilan ular ko'cha-kuyda begona erkaklardan yuzlarini to'sishda foydalanishgan. "Sarkash"lardan ikki minginchi yillarning boshiga qadar asosan qishloqning yoshi katta ayollar foydalanishgan. Bu bilan qishloq aholisi hayotida hayo va iboga nechog'lik darajada muhim o'rinn egallaganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

XULOSA

Markaziy Osiyo hududida amalga oshirilgan "Hujum" harakati eng avvalo, sovetlarning tajovuzkor siyosati mahsuli bo'lib, bu faqatgina xotin-qizlarning taqdirigagina emas, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analari, urf-odatlari, dini, tili, madaniy va ma'naviy qadriyatlariga qilingan hujum ham edi. Yurtimiz mustaqilligiga qadar "Hujum" harakati haqida yaratilgan barcha ilmiy va badiiy asarlarda ijobjiy fikrlar bayon etib kelingan. Lekin, masalaga xolisona va chuquarroq yondashadigan bo'lsak, bu ham mustamlakachilik siyosatining yana bir ayanchli ko'rinishlaridan biri ekanligini bilamiz.

¹¹ Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani, Log'on qishlog'i "Log'on" MFYda yashovchi Hamrojondan (? – 2024) yozib olingan.

¹² Ҳамза Ҳ. Н. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик /[Нашрга тайёрловчилар: Иброҳимова Р. ва бошк.; Масъуль мухарр.: Каримова Н.] Т. 5. Ҳатлар, адабий-тарихий лавҳалар, Ҳамзанинг ижодий ва ижтимоий фаолиятига оид хужжатлар. Т.: «Фан», 1989. 357 – bet.

¹³ Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani, Mash'al qishlog'i "Mash'al" MFY yashovchi Djo'rayeva Davlatposhshodan (1951 yilda tug'ilgan) yozib olindi.

Biroq, “Hujum” harakati haqida xolisona fikr bildiradigan bo‘lsak, bu ijtimoiy-siyosiy tadbir tufayli o‘zbek ayollari ruhan uyg‘ondilar. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi chekalmishlarga barham berib, o‘zlarining faolliklari, erkinliklari va tengliklarini tiklab oldilar. Ular uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratib berildi. Natijada, jamiyat hayotining turli jabhalarida: fan, ta‘lim, madaniyat va san’at singari sohalarda o‘z salohiyatlari va iqtidorlarini namoyon eta olishdi. ayni ular, o‘z mehnatlari va shijoatlari bilan jamiyat hayoti va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdilar. Bu yo‘lda ular bor kuch-g‘ayratlarini sarfladilar.

Qolaversa, “Hujum” harakati sho‘rolarning kutgan natijasini ham bergenligini ham unutmaslik kerak. Ko‘pxotinlik, jabr-zulum, erta turmush singari jamiyatda avj olib ketgan illatlardan ezilgan ayollar tabiatidagi isyokorlik,adolatparvarlik, tenglik, tashabbuskorlik singari tabiiy tug‘ma ko‘nikmalaridan sovetlar o‘z manfaatlari va ehtiyojlari yo‘lida foydalandilar. Buni birinchi navbatda ayollarga “qo‘s Shimcha ishchi kuchi” sifatida baho berilganligidan ham bilib olsak bo‘ladi.

Agarda “Hujum” harakati bo‘lmagan taqdirda ham mahalliy ziyorolar ertami-kechmi ayollarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishgan bo‘lardi. Biroq, bu ish asta-sekinlik bilan, milliy qadriyatlarga putur yetkazmagan holda amalga oshirilar edi.

Biz ushbu harakat va uning natijalarini birgina Farg ‘ona vodisining Log‘on qishlog‘i misolida ko‘rib o‘tdik xolos. Bu yo‘nalishda ham hali o‘rganilishi va tadqiq etilishi kerak bo‘lgan masalalar anchagina.

Nima bo‘lganda ham “Hujum” jamiyat hayotida keskin noroziliklarga hamda ko‘plab jismoniy va ma’naviy yo‘qotishlarga sabab bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek ayolining ozodlikka erishishida, tenghuquqlilik va ijtimoiy hayotda erkaklar bilan bir xil mavqedha ega bo‘lishida muhim tarixiy bosqich bo‘la oldi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ilmiy adabiyotlar

1. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Т. 1975. – 355 с.
2. Abdulahatov N., Zohidov F. Farg‘ona tumani tarixi // asotirlar, lavhalar, izlanishlar / “Farg‘ona” nashriyoti/Farg‘ona – 2013 y. – 368 b.
3. ГЎЗАЛЛИКДА ТЕНГИ ЙЎҚ МАСКАН. Фарғона тумани ташкил топганлигининг шонли етмиш йиллик юileйига бағишиланади. Фарғона: «ФАРҒОНА» нашриёти, 1996 йил. – 230 б.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистан совет мустамлакачилиги даврида //Тузувчилар: М. Жўраев, Р. Нуруллин, С. Камолов ва бошқ; Тахрир ҳайъати: А. Азизхўжаев (раис) ва бошқ./. — Т.: «Шарқ», 2000. – 688 б.
5. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20 - 80 йиллари мисолида): ўкув қўлланма/ Н. Жўраева; масъул мухаррир Д.Б. Бобожонова. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – 264 б.

6. Shukrullo Kafansiz ko‘milganlar: avtobiografik roman / Shukrullo. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 192 b.
7. Ҳамза Ҳ. Н. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик /[Нашрга тайёрловчилар: Иброҳимова Р. ва бошқ.; Масъул муҳарр.: Каримова Н.] Т. 5. Хатлар, адабий-тарихий лавҳалар, Ҳамзанинг ижодий ва ижтимоий фаолиятига оид хужжатлар. Т.: «Фан», 1989. – 392 б.

Gazetalar

8. Женщины Узбекистана //«Смена» август, 1967 год. № 965.;

Internet materiallari

- 9.<https://daryo.uz/2019/10/01/ozbek-ayoli-paranjini-qanday-tashladi-hujum-harakati-haqida>
10. <https://www.jstor.org/stable/j.ctvcwncc0>

Dala tadqiqotlari

11. Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Log‘on” MFYda yashovchi Hamrojondan (? – 2024) yozib olingan.
12. Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Mash’al qishlog‘i “Mash’al” MFY yashovchi Djo‘rayeva Davlatposhshodan (1951 yilda tug‘ilgan) yozib olindi.
13. Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Qal’acha qishlog‘ida yashovchi Nizomova Sharofatxon dan (1950 yilda tug‘ilgan) yozib olindi.
14. Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Vaziyo” MFYda yashovchi Abdullajonova Munavvarxon dan (1957 yilda tug‘ilgan) yozib olindi.
15. Dala tadqiqotlari. 2023 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Xurshidi Tobon” MFYda yashovchi Eshonboboyeva Yorqinoydan (1961 yilda tug‘ilgan) yozib olindi.
16. Dala tadqiqotlari. 2024 yil. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Log‘on” MFYda yashovchi Raxmatova Po‘latxon dan (1969 yilda tug‘ilgan) yozib olindi.